

“QARAQOLPOG‘ISTON SHAROITIDA SHAFTOLINING URUG‘ PAYVANTAGLARINI ETISHTISHNI O‘RGANISH”

Reypnazarova Gulperiyzat Nukusbaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 1-bosqich doktoranti (Dsc)

Saparbaeva Sanobar Sabirbay qizi

Qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar

instituti Mevachilik va uzumchilik yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Qoraqolpog‘iston Respublikasi sharoitida shaftolini yetishtirish, rivojlantirish, bog‘larini yaratish uchun payvantaglarini tanlash, shaftoli urug‘ payvantaglarini etishtirish bo‘yicha kasalliklarga chidamliligi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: прививки, семена, интенсивный сад, низкорослый сад, белый персик, Тюльпан, азиатские сорта, прививка семян.

Аннотация: The disease resistance in growing peaches in the Republic of Karakalpakstan, their development, the choice of vaccinations for creating gardens, and the cultivation of peach seeds were studied..

Ключевые слова: почва, легкий суглинок, средний суглинок, мелкие частицы песка, растительность, засоленность, питательные вещества, минеральные и органические удобрения.

Abstract: Academician M. is located in the Kegeylinsky district of the Republic of Karakalpakstan. The soil analysis of the Kegeyli scientific experimental station of the Mirzaev Scientific Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking has been studied.

Keywords: grafting, seeds, intensive garden, low-growing garden, white peach, tulip, Asian varieties, seed grafting.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalarida, shuningdek mevachilik va uzumchilikni jadal rivojlantirish, tuproq hosildorligini oshirish, meva va uzum mahsuldorligini oshirish, hosil sifatini yaxshilashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shunday mevali o‘simliklardan biri shaftoli bo‘lib, u mo‘l hosil berish hosiyyatiga ega.

Yangi, intensiv bog'larni rivojlantirish qulay bo'lgan tuproq iqlim sharoitida hududlarda (zonalarda) nav va payvandtag uyg'unligi yuqori samara beruvchi usullar bilan, daraxt tanasini simbag'azlarga boylash, erkin holda parvarishlash va ularga har xil shakl berish yo'llari bilan bunyod etiladi. Zamonaviy bog'dorchilikni jadallashtirishning samarali usuli pakana bo'yli payvandtaglarda o'stirilayotgan meva daraxtlari bilan bog' barpo qilish, ayniqsa, ular tanasini simbag'azlarga boylab o'stirish usullari hisoblanadi. Bunday bog'larda daraxtlarning mevaga kirishi tezroq bo'lishi bilan bir qatorda hosildorlik tez ortib boradi va mevaning sifati ancha yuqori va yig'im terimi unumliroq bo'ladi.

Respublikamizda payvandtaglarda yetishtirilgan shaftoli ko'chatlarga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Shuning uchun bugungi kunda ko'chat yetishtirishni ko'paytirish, o'ziga xos xususiyatlarni chuqur o'rganish hamda ko'chat yetishtirishda yangi progressiv texnologiyalarni qo'llash davr talabi.

Yangi, intensiv bog'larni rivojlantirish qulay bo'lgan tuproq iqlim sharoitida hududlarida nav va payvantag mosligi yuqori natija beradigan usullar bilan, daraxt tanasini simbag'azlarga bog'lash, erkin holda parvarishlash va ularga har turli shakl berish yo'llari bilan quriladi. Zamonaviy bog'dorchilikni jadallashtirishning natijali usuli pas bo'yli payvantaglarida o'stirilayotgan meva daraxtlari bilan bog' yaratish, ayniqsa ular tanasidan simbag'azlarga bog'lap o'stirish usullari hisoblanadi.

Shaftolining payvantaglari. Bizning mamlakatimizda hozirgi vaqtga qadar shaftoli yetishtirishda asosan urug'lik payvandtaglardan foydalaniladi. Shaftoli uchun ushbu maqsadda shaftoli, o'rik, bodom, tog'olcha, uy olxo'risining urug' nihollari qo'llaniladi. O'zbekiston va jahonning ko'pgina ilmiy-tadqiqot muassasalarida shaftolining urug'lik payvandtagi sifatida danakli mevalar nav va turlarini sinash bo'yicha ko'plab tajribalar to'plangan. Har xil tuproq iqlim sharoitlarida shaftoli bilan o'tkazilgan tajribalarda aniqlanishicha, ushbu mevali o'simlik turi uchun eng yaxshi payvandtag uni o'zining urug'nihollari hisoblanad. Ular shaftolining aksariyat navlari bilan yaxshi mos keladi, kuchli o'sadi, tez hosilga kiradi va yuqori mashuldorlikni ta'minlaydi.

Payvandtag maqsadlarida shaftolining Oq-Shaftoli, nektarin Lola va Obilniy kabi O'rta Osiyo navlari samarali qo'llaniladi. AQSh va Kanadada payvandag sifatida shaftolining Elberta, Mupir, Ledi Palmerston, .Chempion, Bebigold – 9 navlari urug'ni hollaridan keng foydalaniladi. Payvandtag sifatida qo'llaniladigan GF-305, Rubira navlari Fransiyada, Kernexter navi – Germaniya, Vinogradnyy – Serbiyada olingan. Rossiyaning Krasnodar o'lkasida ham urug'larining yaxshi unib chiqishi, avlodlarining bir tekisligi va qishga chidamliligi bilan ajralib turuvchi shaftolining Pamirskiy 5, Tixoretskiy 4, Alevra 2, Chernomorskiy 2 kabi payvandtag navlari olingan.

Shaftoli uchun urug'lik payvandtag sifatida foydalanilishi jihatidan oddiy bodom – *Prunus amygdalus* (L) Bats ikkinchi o'rinni egallaydi. U qurg'oqchilikka, tuproqda ohaning ko'p bo'lishiga chidamli hisoblanadi, ammo tuproq nematodalari bilan zararlanadi, og'ir va ortiqcha nam tuproqlarda yaxshi o'smaydi va qishga u qadar chidamli emas. Ushbu payvandtag aksariyat shaftoli navlari bilan yaxshi mos keladi. Shaftoli uchun payvandtag sifatida foydalanishda bodomning maxsus tanlangan shakllari va uning shaftoli bilan duragaylari ham yuqori samara beradi

Shaftolining urug' payvantaglarini etishtirish

Payvan taglar	E kish sxeması	Sov uqqa chidamlili gi	Qurg'oqc hilikka chidamliligi	Kasalli klarga chidamliligi	Payvantag larning mos kelishi
Oddiy bodom	2, 5x3	unc hali chidamli emas	chidamli	chidam siz	Mos keladi
O'rik	2, 5x3	Chi damli	chidamli	chidam siz	Mos kelmaydi
olcha	2, 5x3	unc hali	chidamli	chidam siz	Mos kelmaydi

		chidamli			
		emas			

Shaftoli uchun urug'lik payvantag sifatida poydalanilishi tarafdin oddiy bodom - *Prunus amygdalus* (L) Bats ekinchi orinni egallaydi. U quruqlikka, tuproqda ohak moddasining ko'p bo'lishiga chidamli hisoblanadi, lekin tuproq nematodalari bilan zararlanadi, og'ir va ortiqcha nam tuproqlarda yaxshi o'smaydi va qishga unchali chidamli emas. Bu payvantag ko'pchilik shaftoli navlari bilan mos keladi. Shaftoli uchun payvantag sifatida foydalanishda bodomning tanlangan formalari yana uning shaftoli bilan duragaylari ham yuqori natija beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak shaftolining urug' payvantaglarini etishtirishda Oddiy bodom, o'rik, olcha payvantag sifatida olinib, ularning ekish sxemasi, sovuqqa chidamliligi, qurg'oqchilikka chidamliligi, kasalliklarga chidamliligi va payvantaglarning moskelish va mos kelmasligi o'rganildi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Абдурахманов А.А. Особенности цветения и плодоношения дальневосточных растений в условиях Ташкента. - //Интродукция и акклиматизация растений. Вып.10, Ташкент: Фан, 1973. - С.20-25.
2. Abdullaev R.M., M.M.Isroilov "100 kitob to'plami Shaftoli yetishtirish 57 kitob" Agrobank ATB Nashiryot uyi "Tasvir" Toshkent-2021 b-8
3. Азимбаев С.А. Почвы южной части Узбекистана и их мелиоративное состояние. - Ташкент: Фан, 1991,140с.
- 4.Ахмедова Х.Д. Интродукция видов маслины в Ботанический сад АН Республики Узбекистан. - Тезисы докл. 2-й междунар. конф. //Анализ и прогнозирование результатов интродукции декоративных и лекарственных растений мировой флоры в ботанические сады. Минск: Тэхнология, 1996. –С.3-4.